

turlicha yondashuvlar asosida o'rganib kelingan. Tadqiqotchilar asarni asosan diniy-ma'rifiy, tasavvufiy hamda didaktik yo'nalishdagi badiiy manba sifatida talqin etib, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Ushbu bo'limda Huvaydo ijodi va "Rohati dil" dostoni yuzasidan bildirilgan ilmiy qarashlar tahlil qilinadi hamda ular o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar yoritiladi.

O'zbek adabiyoti tarixiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlarda Huvaydo ijodi mumtoz adabiyotning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini davom ettirgan muhim ijodiy hodisa sifatida baholanadi. Jumladan, G. Karimovning adabiyot tarixi bo'yicha darsligida Huvaydo asarlarining xalq orasida keng tarqalganligi, ularning panch-nasihah va axloqiy tarbiya g'oyalari boy ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotda "Rohati dil" dostonining diniy-axloqiy mazmuni, undagi rivoyat va hikoyatlarining islomiy ta'limot bilan uyg'unligi alohida ta'kidlanadi hamda asar komil inson g'oyasini targ'ib etuvchi manba sifatida talqin qilinadi [2, 214-b].

I. Adizova tomonidan yozilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" asarida esa Huvaydo ijodining tasavvufiy asoslari kengroq yoritiladi. Muallif "Rohati dil"ni faqat diniy asar sifatida emas, balki inson ruhiy olamini tarbiyalovchi badiiy-falsafiy manba sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotda dostonning kompozitsion tuzilishi, undagi hikoyatlar tizimi va axloqiy-didaktik yo'nalishning ustuvorligi tahlil qilinib, asarning mumtoz an'analar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatiladi [3, 158-b].

Huvaydo ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlardan biri N. Jumaxo'janing ilmiy ishlaridir. U Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyatini ochib berar ekan, "Rohati dil" dostonini tasavvufiy qarashlar bilan sug'orilgan axloqiy-didaktik asar sifatida baholaydi. Olimning fikricha, dostonning asosiy maqsadi insonni ruhiy poklanishga, komillikka va Allohga yaqinlashishga da'vat etishdan iboratdir. Shuningdek, asarda xalq og'zaki ijodi unsurlarining mavjudligi ham uning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim omil sifatida ko'rsatiladi [5, 47-b].

Shuningdek, "Rohati dil"ning matnii nashrlari va izohli variantlarida ham asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga doir muhim mulohazalar uchraydi. 2011-yilda Toshkentda chop etilgan nashrdan dostonning diniy-ma'rifiy yo'nalishi, undagi hamd va na't qismlarining badiiy-falsafiy ahamiyati alohida qayd etiladi. Ushbu manbada Huvaydoning Payg'ambarlar hayoti, sahobalar ibrati va axloqiy qadriyatlarini badiiy talqin qilishdagi mahorati ta'kidlanadi hamda asar xalq orasida keng ommalashgan pandnoma sifatida baholanadi [1, 9-b].

Rus va umumiy turkiy adabiyotshunoslik an'analarida ham tasavvufiy dostonlar, jumladan, Huvaydo ijodi Navoiy, Jomiy va Yassaviy an'analaridavomchisi sifatida o'rganiladi. Bu yondashuvlarda "Rohati dil"ning struktural xususiyatlari, uning didaktik maqsadi hamda kompozitsion erkinligi alohida qayd etiladi. Tadqiqotchilar asarni qat'iy syujetga ega bo'lmagan, biroq g'oyaviy yaxlitlikka ega bo'lgan tasavvufiy-didaktik doston sifatida talqin qiladilar.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda "Rohati dil" dostoniga berilgan baholar bir-birini to'ldiradi. Tadqiqotlarda asarning uch asosiy jihati — diniy-ma'rifiy mazmuni, tasavvufiy-falsafiy qarashlari va axloqiy-didaktik yo'nalishi ustuvor ravishda yoritilgan. Shu bilan birga, ayrim ishlarda asarning kompozitsion erkinligi va hikoyatlarining mustaqil mazmunga ega ekanligi ham ta'kidlanadi. Bu esa "Rohati dil"ni o'zbek mumtoz adabiyotining ko'p qatlamli, murakkab g'oyaviy tizimga ega bo'lgan muhim badiiy manbasini sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Xo'janazar Huvaydoning "Rohati dil" dostoni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-filologik, qiyosiy-tipologik hamda matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-filologik yondashuv asarning yaratilish davri, adabiy an'analar va mumtoz adabiyotdagi o'rni aniqlashga xizmat qildi. Qiyosiy-tipologik metod orqali "Rohati dil" boshqa tasavvufiy-didaktik dostonlar, xususan, Navoiy va Jomiy ijodi bilan solishtirildi hamda musharak va farqli jihatlar ochib berildi.

Matn tahlili usuli esa asardagi hikoyatlar, rivoyatlar, badiiy tasvir vositalari va kompozitsion tuzilmani bevosita tahlil qilishga qaratildi. Shuningdek, germeneytik yondashuv asosida matndagi diniy-tasavvufiy mazmun va ramziy ma'nolar sharhlanib, ularning komil inson konsepsiyasi bilan bog'liqligi yoritildi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar va adabiyotshunos olimlarning qarashlari ham tahlilga jalb etildi.

Natijalar. Asar haqida bildirilgan quyidagi fikrlar ham Huvaydoning mumtoz adabiyotimiz an'alarini munosib davom ettirganligini ko'rsatadi: "Xo'janazar Huvaydoning masnaviy yo'lida yozilgan "Rohati dil" dostonini va "Ibrohim Adham" qissasi o'z muallifining dostonnavislik salohiyatidan darak beruvchi yodgorlik bo'lib, shoirming o'zbek mumtoz pandnomasi xazinasiga qo'shgan munosib hissasidir. Ushbu doston xalq orasida mashhur. U Huvaydo she'rlaridagi mazmun va g'oyani to'ldiradi, teranlashtiradi. "Rohati dil" g'ofil yuraklarni nasihat nurlaridan munavvar etuvchi ma'rifiy manzumadir."

Huvaydo adabiy merosida alohida o'rin tutuvchi "Ibrohim Adham" qissasi tasavvuf g'oyalari asosida yaratilgan asarlardan biridir. Shoirming

"Rohati dil" dostoni ham diniy-ma'rifiy mazmuni bilan ajralib turadi. Asarda islom ta'limotining muhim jihatlari, shariat ahkomi hamda payg'ambarlar hayotiga oid voqealar badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, Hazrati Muhammad sallallohu alayhi vasallamning hayot yo'llari va faoliyatlarini bilan bog'liq lavhalar mahorat bilan yoritilgan.

Falsafa fanlari doktori, professor, Huvaydoshunos olim Qodirqul Ro'zmatzoda o'z maqolalaridan birida Huvaydo va uning asarlari, xususan, "Rohati dil" dostoni va "Ibrohim Adham" qissasi haqida shunday deydi: "Huvaydo tasavvufda yangi tariqat yaratmadi, balki atrofida tasavvufning ilgari shakllangan ilg'or g'oyalari uyg'unlashtirishga, jamiyatni tanazzul va parokandalikdan qutqarish, iymon-e'tiqodli komil inson shaxsini shakllantirishning yangi qirralarini izlab topishga harakat qildi. Uning ijodida Imom G'azzoliy, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Fuzuliy, So'fi Olloyor singari mashhur mutasavviflarning g'oyalari alohida o'rin egalladi.

Ayni vaqtda ahli ummiy (avom) o'rtasida islom dini ta'limotini, hadis hikmatlarini ibratli diniy rivoyat va hikoyatlar orqali targ'ib qilishga, ularning diniy bilim va saviyasini ko'tarishga, shariat ahkomi soddah va tushunarli tilda bayon etishga, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishga harakat qildi [1, 7-b].

Doston davomida muallif o'quvchini yuksak axloqiy fazilatlar, ma'naviy poklik va komillik g'oyalari bilan tanishtiradi. Asarning asosiy g'oyalari insonning moddiy manfaatlarini emas, balki ma'naviy kamolotni ustuvor maqsad sifatida belgilashi lozimligidir. Huvaydo nazarida, ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashib, faqat dunyoviy boylik ortidan quvgan kishi insoniylik mohiyatidan yiroqlashadi.

"Rohati dil" dostoni falsafiy – tasavvufiy ruhdagi asardir. Shu bilan bir qatorda, unda shoir tarjimayi holiga dahldor o'rinlar mavjud. Kitobning yozilish sabablari uchun muallif alohida kichik bir bob bag'ishlaydi. Sababi talifiy kitob bobida o'zining qisqacha tarjimayi holiga urg'u berib o'tadi. Shoirming asarni yozishdan asosiy maqsadi zamondoshlarini g'afldan uyg'otish, ularni komillikka chorlashdir. "Rohati dil" dostoni an'anaviy dostonlarga xos bo'lgan yagona syujet va qat'iy kompozitsion tuzilishga ega bo'lmasa-da, undagi hikoyat va rivoyatlar mazmun jihatidan o'zaro uzviy bog'langan holda bayon etilgan. Asar tarkibidagi har bir voqea va rivoyat ma'lum bir g'oyaviy maqsadga xizmat qilib, umumiy mazmunning yaxlitligini ta'minlaydi. Shu bois asarda shakl va mazmun uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Dostonning barcha qismlarini birlashtirib turuvchi asosiy g'oya komil inson konsepsiyasidir. Muallif turli hikoyatlar, diniy rivoyatlar va pand-nasihahlar vositasida insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lini tasvirlaydi. Asardagi qahramonlar, voqealar va axloqiy xulosalar ham aynan komil insonni tarbiyalash, unda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirish g'oyasiga bo'yundirilgan. Natijada dostonning g'oyaviy markazini insonning ruhiy va axloqiy takomili masalasi tashkil etadi.

"Rohati dil" asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarining asosiy yo'nalishi islom dinining qisqacha bo'lsada, tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy – axloqiy hikoyatlar orqali o'quvchi ongi va uning tashqi va ichki dunyosini islom ma'naviyati bilan boyitishga qaratilgan.

Islom madaniyatida har qanday ezgu va savobli ishni "Bismillohir rohmahir rohiym" kalimasi bilan boshlash qadimiy va muqaddas an'analardan biri hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotida, ayniqsa, o'rta asrlar dostonchilik an'anasida asarlarni Alloh taoloning hamdi va sanosi bilan boshlash keng tarqalgan. Huvaydo ham ushbu adabiy an'anaga sodiq qolgan holda "Rohati dil" dostonining muqaddimasini Yaratganning madhiga bag'ishlaydi.

Shoir hamd qismida Allohning cheksiz qudrati va hikmatini yuksak ehtiros bilan tasvirlaydi. Uning talqinida butun borliq – osmon va yulduzlardan tortib, yer yuzidagi o'simliklar, hayvonot dunyosi hamda insoniyat hayoti yagona ilohiy tartib asosida mavjuddir. Olamdagi har bir narsa Allohning irodasi va marhamati bilan harakat qiladi, o'zaro bog'lanadi va muayyan maqsadga xizmat qiladi. Huvaydo Yaratganning cheksiz mehr-muhabbati va rahmatini ulug'lar ekan, barcha mavjudotlar Unga shukrona bildirib, hamd-u sano aytishini ta'kidlaydi. Shu tariqa shoir dostonning dastlabki satrlaridanoq o'quvchini ilohiy qudrat va e'tiqod ruhiga oshno etadi:

*Sanov-u hamd xalloqi jahong'ra,
Ki hukm ko'rsatib yaxshi yamong'ra.
Tutibdur besutun ko'kni muallaq,
Borib shams-u qamar dunyoga ravnaq [4]*

Tasavvufiy adabiyotda Alloh taoloning yagonaligini e'tirof etish, Uning cheksiz qudrati va komil sifatlarini madh etish muhim badiiy-estetik tamoyillardan biri hisoblanadi. Huvaydo ham ushbu adabiy an'anani davom ettirib, o'z asarlarida tavhid g'oyasini markaziy o'rinlardan biriga qo'yadi. Shoir Allohning mutlaq yagonaligi, benzirligi va olamdagi

barcha mavjudotlarning Yaratganga bog'liqligi haqidagi qarashlarni diniy-tasavvufiy ruhda talqin etadi.

Mumtoz adabiyot an'analariga muvofiq ravishda, Alloh taolo madhidan keyin Huvaydo Hazrati Muhammad sallallohu alayhi vasallam siyosini ulug'lashga o'tadi. Asarning "Fi na'ti Rasululloh sallallohu alayhi va sallam" deb nomlangan qismida Payg'ambar alayhissalomning yuksak fazilatlarini, axloqiy komilligi va insoniyat uchun rahmat sifatida yuborilganligi badiiy ifodasini topgan. Shoir talqinida Muhammad sallallohu alayhi vasallam Alloh tomonidan eng go'zal sifatlar bilan mukarram etilgan zot bo'lib, shu bois "Habibulloh" maqomiga sazovor bo'lganlar. Shuningdek, ularning dunyoga kelishi nur timsoli orqali tasvirlanadi hamda oxirgi payg'ambar sifatidagi ulug' martabalarini alohida ta'kidlanadi. Shu tariqa Huvaydo na't janri imkoniyatlaridan foydalangan holda Payg'ambarimiz siyosini diniy va ma'naviy kamolotning mukammal namunasi sifatida gavalantiradi.

Durdi beadaddur Mustafog'a,

Habibi Haq nigini anbiyog'a.

Sharofat bobida uldur yagona,

Erur payg'ambari oxir zamona... [4]

Shundan so'ng Huvaydo payg'ambarning izdoshlaridan Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Ali, Imom Hasan va Husayn haqida, ularning Islom ishiga fidoyiligi, sadoqati haqida ham iliq fikrlarni bayon qiladi.

Ta'kidlash joizki, Xo'janazar Huvaydning "Rohati dil" dostoni Sharq adabiyotining mumtoz vakillari bo'lmish Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodiyotlaridagi "Mahzan ul-asror", "Matla' ul-anvor", "Tuhfat ul-axror", "Hayrat ul-abror" dostonlaridan ilhomlanish natijasida maydonga kelib, uning tuzilishi (maqolat va hikoyatlar, masallar) ham, ijtimoiy va axloqiy muammolarning o'rta qo'yilishida ham umumiylik borligi ko'zga tashlanadi. Umumiylik tomoni shundaki, tilga olingan dostonlar yoki shoirlarning ijodidagi asosiy mushtaraklik axloqiy-talimiy fikrlarni ifodalash, komil insonni tarbiyalashga bosh vazifa sifatida qarashdir. Huvaydning "Rohati dil" dostonida ilmi kalam va ilmi fiqhda zikr etilgan masalalarni bayon qilishda So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asariga yaqin turishini kuzatishimiz mumkin. Har ikkala asarda ham insonlarning e'tiqodi, iymoni, diyonatini mustahkamlashni, ularning o'zligini va Xoliqni tanish bilan bog'liq masalalar haqida fikr yuritilganligi ko'zga tashlanadi. [2]

Yuqorida ta'kidlangan asarlarni qiyoslashda shuni kuzatishimiz mumkin, Huvaydning "Rohati dil" dostoni axloqiy-talimiy fikrlarni bayon etuvchi yetuk asar hisoblanadi va g'oyani ifoda qilish jihatidan farq qiladi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyotining ilk davrlarida yaratilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sayfi Saroiyning "Guliston bit turkiy", Nizomiy Ganjaviy "Mahzan ul-asror", Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" kabi dostonlarida axloqiy-talimiy fikrlar diniy hamda dunyoviy manzaralar, kechinmalar orqali berilgan. Dostonlarning hamd va na'tlarida islom ta'limotiga oid qarashlar badiiy tarzda o'z ifodasini topgan bo'lib, so'nggi fasl va boblardagi tasvirlar hamd-na'tlar bilan uzviy bog'lanadi. Agar islom ta'limotida va uni targ'ib qiluvchi badiiyat namunalarida insonni tarbiyalash, unga mehr-muhabbat ko'rsatish, kishilarning muruvvatli, saxovatli bo'lishi bosh masala qilib qo'yilsa, "Rohati dil" ham yuqoridagi asarlar oldida turgan vazifalarni bajaradi. Faqat bu o'rinda masala ko'proq islom ta'limotini shakllantirishga xizmat qiluvchi diniy g'oyalarga qaratilganligi ko'zga tashlanadi. [3]

Huvaydning "Rohati dil" dostoni o'zining g'oyaviy yo'nalishi va badiiy qurilishi jihatidan o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Uni Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida ayrim mushtarak jihatlar namoyon bo'ladi. Avvalo, har ikki asar masnaviy shaklida yaratilgan bo'lib, ularda axloqiy-ma'rifiy, falsafiy va diniy qarashlar badiiy obrazlar vositasida ifodalangan. Shuningdek, ushbu dostonlarning yaratilishida mumtoz adabiyotga xos an'anaviy tamoyillar muhim o'rin tutadi. Biroq ularning maqsad va vazifalarida muayyan farqlar ham mavjud: "Hayrat ul-abror" xamsachilik an'anasining mahsul bo'lsa, "Rohati dil" diniy-ma'rifiy va tasavvufiy g'oyalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan asar sifatida shakllangan.

Muhokama. Huvaydo ijodining markazida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi va tasavvufiy tarbiya masalalari turadi. Bu jihatlar ayniqsa "Rohati dil" dostonida yorqin aks etgan. Asar nafaqat muallifning ruhiy kechinmalari va hissiy olamini yoritadi, balki uning hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari hamda diniy-falsafiy dunyoqarashini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli "Rohati dil"ni Huvaydo ijodiy merosining eng muhim manbalaridan biri sifatida baholash mumkin. Mazkur doston o'zining didaktik ruhi, ma'naviy-tarbiyaviy mazmuni va diniy-axloqiy g'oyalari bilan milliy madaniy merosimizning qimmatli namunalaridan biri hisoblanadi.

Asardagi obrazlarning bir guruhi iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik, ikkinchi guruhi esa g'azab, nafrat uyg'otuvchi obrazlardir.

Huvaydo asarning yozilish sabablari bayonidan so'ng, qiyomat kunining sharhini tafsiloti bilan so'zlashga kirishadi. So'ng jannat va do'xaning sifatlarini bayon etiladi:

Rivoyat ayladi Abu Hurayra,

Raziyalloh anhu quddisa sirra.

Payambaridin dedi mundog' eshitim,

Alarning so'zini ko'nglumda tutim.

Bihishtning dedi devori mujallo,

Ki bir xishti zumurrad, biri tillo.

Erur loyi yopardin, o'zi za'far

Xaymaning yerining o'rnig'a gavhar.

Oqar suyi tamome shiru-shakkar,

Laban furs aylagan yoquti ahmar. [4.40]

Huvaydo yuqoridagi misralar orqali sahoba Abu Hurayra rivoyat qilgan hadis asosida jannatning go'zal va betakror manzaralarini tasvirlaydi. Shoir Payg'ambarimizdan eshitilgan rivoyatni bayon qilib, jannatning devorlari zumrad va oltindan qurilgani, tuprog'i za'faron va mushkdek xushbo'y ekani, yerlari gavhar va qizil yoqutlar bilan bezatilganini ta'kidlaydi. Shuningdek, jannatdagi suvlarning sul va shakardek totli va pokiza ekanligi tasvirlanadi. Parchaning asosiy maqsadi jannat ne'matlarining ulug'ligi va go'zalligini ko'rsatish, insonlarda ezgu amallarga intilish hamda oxirat saodatiga erishish istagini uyg'otishdir. Shoir qimmatbaho toshlar va nodir boyliklar orqali jannatning inson tasavvuridan ham yuksak va mukammal maskan ekanini ifodalaydi. Huvaydo jannat sifatlarini ulug'lashda tashbeh, mubolag'a, sifatlash, tanosub va kuchli tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalangan.

Bo'lubdur Hoviya deb oti bunyod.

Yana Qur'onda keldi Hoviya yod.

Ikinchisining otidur Jahim ham,

Bo'lur joyi zinokor bo'lsa odam.

Yana qilg'ay imomiga xiyonat,

Erur ul ro'siyoh, yolg'onchi ummat.

Yana so'zni yurib so'zga ulashgan,

Birovning so'zini so'zga surushgan,

Bularning joyi bo'lg'uchi Jahim ham,

Jazosini olur har kim damo dam. [4.34]

Do'xax sifatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Huvaydo yuqoridagi parchada do'xaxning turlaridan biri bo'lgan Hoviya va Jahim haqida so'z yuritadi. Shoir Qur'onda zikr qilingan Hoviya nomli azob maskanini eslatib, undan keyin Jahim haqida ma'lumot beradi. Jahimga tushadigan kishilar sifatida zinokorlar, o'z rahnamosi yoki imomiga xiyonat qiluvchilar, yolg'onchilar hamda odamlar orasida g'iybat va fitna tarqatib, birining gapini boshqasiga yetkazib yuradigan kimsalar tilga olinadi. Shoir ushbu gunohlarning og'ir oqibatlarini ko'rsatish orqali insonlarni axloqsizlik, xiyonat, yolg'on va g'iybatdan qaytarishga intiladi. Parchada talmeh, tanosub, ta'did, takror va sifatlash san'atlarini qo'llash orqali ijodkor asarning ta'sirchanligi va didaktik ruhini kuchaytirgan.

"Rohati dil" diniy – didaktik asar bo'lib, unda islom dini va tasavvuf ta'limotining umuminsoniy g'oyalari ibratomuz hikoyalari orqali tahlil qilinadi. Bilim olishning ulug'ligi, ilm ahli izzatini o'rniga qo'yish, ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, ularni roziligini olish, qo'ni-qo'shni, qarindoshlarning bir-biriga mehr oqibatli bo'lishi, er-u xotinning bir-biriga mehr-muhabbatli bo'lishi, izzat-hurmatini joyiga qo'yishi, nafsga qul bo'lishning oqibatlari, mol-dunyoga hirs qo'yish, riyokorlik, xiyonat, ta'magiriklik, takabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi fazilat-u qusurlar asarning asosini tashkil etadi. Asar "Munjojt ba jonibi qoziyu-l-hojat" ya'ni, Alloh ta'olaga murojaat – iltijo bilan yakunlanadi.

Asarning markazida, musulnoniyatda Alloh yaratgan banda – inson yotadi. Asardagi har bir voqea – hodisalar aynan inson atrofida birlashadi. Bu esa adabiyotning asosiy obyekti inson ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi:

Ko'ngul shahri yagona azm qildim,

Kitobim nasr edi, man nazm qildim.

Bu Chimyon shahrining piyru javoni,

Tamomiyisi erurlar turkiyxoni [4].

Ushbu misralardan ko'rinishimiz mumkin, asarning dastlabki forsiy nusxasi nasrda yozilgan. Keyinchalik talab va takliflarga ko'ra uni nazm yo'li bilan qayta yaratadi. Shoirming umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkiygo'y bo'lgani uchun dostonni nazmdagi nusxasi turkiy tilda yoziladi.

Ki harjo bilgulukdir kori omiy.

Bo'lur har korida albatta xome.

Nechukki donishim yo'q omiydurman.

Jiydaning mevasining xomidurman [4].

Quyidagi misralar orqali esa shoir har qanday ishda kamchilik bo'lishi mumkin deya aytib o'tiyapti. Mubolag'a qilgan holda o'zini omi, jiydaning xom mevasiga qiyoslayapti.

Xo'janazar Huvaydning "Rohati dil" asarida muhim o'rin tutuvchi axloqiy-ma'rifiy masalalardan biri nutq madaniyati va so'z odobi bilan

bog'liq qarashlardir. Shoir insonlar o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida tilning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Asarda so'zning inson hayotidagi o'rni, uning ezigulikka yoki aksincha salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkinligi badiiy va didaktik ruhda talqin etiladi.

Huvaydo tilni insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan ulug' ne'mat sifatida baholaydi. Uning talqiniga ko'ra, kishining odobi, ma'naviy saviyasi va ichki dunyosi, avvalo, nutqida namoyon bo'ladi. Shu sababli har bir inson o'z so'ziga mas'uliyat bilan yondashishi, tilni ezgu maqsadlar yo'lida qo'llashi lozim. Shoir so'zning qadrini bilish, uni o'rinli va ma'noli ishlatish insoniy kamolotning muhim belgilaridan biri ekanligini uqitiradi:

Amalning yaxshisi zinhor, ey yor,

Dedi oz so'zlamak Sultoni abrur.

Tan ayturki kam so'zlagil, ey til.

Bo'lur yuz ming gunohlar sanda hosil...

Kishi ko'p so'zlasa tortar azani,

Eshitur xalq aro ko'p nosazoni [4].

“Rohati dil” kitobini nashrga tayyorlagan insonlar tomonidan kitobning so'ngida, ilova rukni ostida Salohiddin Soqib qalamiga mansub bo'lgan “Kitobi Eshon Huvaydoyi Chimyoniy” kitobining chop etilish tarixi”, deb nomlangan, aruz she'r tizimida yozilgan va bir qarashda, Huvaydoning hayoti va ijodiga chizgilardek ko'rinadigan hamda ayni vaqtda tarixiy hujjat vazifasini ham bajara oladigan 32 baytdan iborat xotiralari kiritilgan.

Xulosa. Adabiyotimiz tarixi uchun kerakli ma'lumot vazifasini bajarib beruvchi yuqorida tilga olingan she'riy xotira muallifi Salohiddin Sirojiddin o'g'li Soqib Xo'janazar Huvaydoning o'shlik chevarasi hisoblanadi. U 1858–1910-yillari O'sh shahrida istiqomat qilgan va o'zi ham Soh'ib taxallusi bilan she'rlar yozgan. U o'shlik mashxur shoira Samar bonu (1837–1891) bilan opa-uka bo'lgan. Huvaydoning nabirasi Sirojij,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham. – Toshkent: Navro'z, 2011. – 7 b.
2. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 1-kitob. – Toshkent, 1976. – 214 b.
3. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 158 b.
4. Хожамназар Хувайдо. Рохати дил. Иброхим Адхам. – Ташкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси, 1994. – 40 б.
5. Jumaxo'ja N. Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati. – Toshkent, 1995. – 47 b.

chevaralari Samar bonu, Salohiddin Soqib, G'aribiy devon tuzgan shoirlar bo'lib, Huvaydo an'analarini davom ettirganlar.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo o'zbek mumtoz adabiyotining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishini boyitgan iste'dodli ijodkorlardan biridir. Uning “Rohati dil” dostoni mazmunan teranligi, g'oyaviy salmog'i va badiiy mukammalligi bilan adabiy merosimizda alohida o'rin egallaydi. Asarda tasavvuf ta'limoti, axloqiy-ruhiy kamolot, inson tarbiyasi, milliy va diniy qadriyatlar, shuningdek, dunyo va oxirat haqidagi qarashlar o'zaro uyg'un holda talqin etilgan.

Huvaydo o'z asarlari orqali kitobxonni ma'naviy yetuklikka, ezigulik va komillikka chorlaydi, avvalgi davrlarda yashab o'tgan mutafakkirlar, shoirlar hamda diniy arboblarning ilmiy va axloqiy merosiga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Shu jihatdan uning ijodi adabiy an'analar davomiyligini ta'minlagan muhim ma'naviy manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Umuman olganda, Huvaydoning “Rohati dil”, “Ibrohim Adham” qissasi hamda lirik merosi yagona ma'rifiy-ma'naviy konsepsiya asosida shakllangan bo'lib, ularning mazmun-mohiyatida Qur'oni Karim va hadisi shariflarda ilgari surilgan insonparvarlik, axloqiy poklik, e'tiqod va komillik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Huvaydo “Rohati dil” dostonida insonni komillikka yetaklovchi xususiyatlar, uning ruhini nopoklikdan xalos etish kabi muhim masalalar xususida o'zining umrboqiy fikrlarini bayon etadi. Shubhasiz, shoir bunda Qur'oni karim, Hadisi sharif va tasavvuf ta'limotiga tayanadi.

“Rohati dil” asarida islom va tasavvuf ta'limotining umuminsoniy g'oyalari ibratli hikoyatlar vositasida bayon etilgan. Asar tarbiyaviy jihatlarini o'zida mujassamlashtirilgani sababli bugungi kun uchun muhim adabiy manbadir. Ayniqsa har bir hikoyatning mazmunan bog'lanib birma – bir bayon etilishi shakl va mazmunning uyg'unligidan darak beradi. Bu esa asar qiymatini yanada oshiradi .

6. Rahmonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti va tasavvuf. – Toshkent: Fan, 2008. – 189 b.
7. Yo'ldoshev Q. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Universitet, 2010. – 276 b.
8. Vohidov R. Tasavvuf va o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 233 b.
9. Karimov N. O'zbek adabiyoti tarixi (XV–XIX asrlar). – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 312 b.
10. Naqibxonov A. Mumtoz adabiyotda diniy-ma'rifiy yo'nalish. – Toshkent, 2012. – 198 b.